

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

11-son (noyabr 2024)

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2024

- (3). Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. М., Русские словари, 1996, 124 с.
- (4). Фролова О.П. Цветообозначения в японском языке. Языковые категории в лексикологии и синтаксисе. Новосибирск, 1991, с. 71–87.
- (5). Фукуда Кунио. Кизил, оловранг, сарик, яшил, хаво ранг, кўк ва бинафша ранг ва уларнинг маданий маъноси. Япония. Илмий тадқиқот институти, 1979. 254-бет.
- (6). Самоделова Е.А. Символика цвета у С.А.Есенина и свадебная поэзия рязанщины. Филологические науки. М., 1992, с. 12–22.
- (7). Седава О.В. Поэтика цвета в прозе Е.И.Замятина. Дисс. ...канд. филол. наук, Елец, 2006, 200 с.
- (8). Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. СПб., “Искусство”, 2000, 703 с.
- (9). Маслова В.А. Лингвокультурология. М., “Академия”, 2001, 208 с.
- (10). Юшкина Е.А. Поэтика цвета и света в прозе М.А.Булгакова. Волгоград, 2008, 201 с.
- (11). Кудрина А.В., Мещеряков Б.Г. Семантика цвета в разных культурах. Психологический журнал Международного университета природы, общества и человека. Дубна, 2011, 18 с.
- (12). Кононов А.Н. О семантике слов кара и ак тюркской географической терминологии. Изв. АН Тадж. ССР. Отделение общественных наук. Вып. V. Душанбе, 1954, с. 83–85; Исхаков Ф.Г. Имя прилагательное. Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. II. Морфология, 1956; Е.Койчубаев. Нецветовая сущность топонимических компонентов ак, кара, кок, сары в географических названиях. В кн.: Всесоюзная конференция по топонимике. 1965, 185 с.
- (13). Садыкова М. Слова, обозначающие цвет и окраску в узбекском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук, Ташкент, 1963.
- (14). Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеърятда ранг билан боғлиқ рамзий образлар. Филол. фан. номз... дисс., Тошкент, 2000, 13-бет.
- (15). Рўзиева М. Ўзбек халқ кўшиқларида ранг символикаси. Филол. фан. номз...дисс., Тошкент, 2017, 23-бет.
- (16). Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. М., Русские словари, 1996, с. 231–291.
- (17). Григорук С.И. Концепт синего цвета в поэзии Георгия Иванова. Львовский национальный университет им. И.Франко. Автореф. Дисс...докт. филол. наук. М., 2002, с. 15.
- (18). Зоолишоева Ф.Ш. Цветообозначение в шугнано-рушанской языковой группе в этнолингвистическом освещении. Автореф. дисс... докт. филол. наук, Санкт-Петербург, 2005, с. 23.
- (19). Ержанова Д.Қ. Ибрайим Юсупов поэмаларининг лингвопоэтик таҳлили. Филол. фан. номз...дисс., Нукус, 2022, 14-бет.

Maxamadtoirova Adiba Botir qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti “Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrası o‘qituvchisi, PhD; email: maxamadtoirova@mail.ru)
XITOIY TILIDA QIYOSLASH KONSTRUKSIYALARIDA JARAYON VAQTIDAGI
GRADATSIYANING NAMOYON BO‘LISHI

***Annotatsiya.** Tilshunoslikda qiyoslash XX asrdan boshlab alohida kategoriya sifatida o‘rganila boshladi. Ushbu mavzu o‘zbek, rus, xitoy va boshqa tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Qiyoslash konstruksiyalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarining grammatik xususiyatlari, ushbu konstruksiyalarning yasalishidagi o‘ziga xosliklar yoritib berilgan, ularning semantik va tuzilishiga ko‘ra tasnifi amalga oshirilgan. Ammo ta’kidlash joizki, qiyoslash konstruksiyalarida gradatsiya masalasi shu vaqtga qadar monografik yo‘sinda tadqiq etilmagan. Ushbu maqolada hozirgi xitoy tilida qiyoslash konstruksiyalarida gradatsiya munosabatining ifodalanishiga qaratilgan bo‘lib, qiyoslash konstruksiyalari orqali gradatsiya sodir bo‘lsa, qanday usullar orqali amalga oshishi o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:** qiyos, taqqos, o‘xshatish, qiyosiy daraja, qiyos obyekti, qiyos subyekti, konstruksiya, gradatsiya.*

Махамадтоирова Адиба Ботир кизи (PhD Ташкентского государственного университета востоковедения; email: maxamadtoirova@mail.ru)

ВЫРАЖЕНИЕ ГРАДАЦИИ ПРОЦЕССА В СРАВНИТЕЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЯХ
КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА

***Аннотация.** Сравнение в языкознании как отдельная категория стало изучаться с XX века и становилось темой исследований узбекских, русских, китайских и других ученых-лингвистов. Исследования сравнительных конструкций выявили грамматические особенности сравнительных конструкций в китайском языке, особенности построения этих конструкций, их классификацию по семантике и структуре. Однако следует отметить, что вопрос градации в сравнительных конструкциях до сих пор оставался неизученным в монографическом плане. Данная статья посвящена выражению отношения градации в сравнительных конструкциях в современном китайском языке,*

а также тому, какими методами осуществляется сравнение, если градация происходит через эти конструкции.

Ключевые слова: сравнение, сопоставление, аналогия, сравнительная степень, предлог, объект сравнения, предмет сравнения, конструкция, градация.

Makhamadtoirova Adiba Botir kizi (State University of Oriental Studies, Doctor of Philosophy, Chinese teacher; Email: maxamadtoirova@mail.ru)

EXPRESSION OF PROCESS GRADATION IN COMPARATIVE CONSTRUCTIONS OF THE CHINESE LANGUAGE

Annotation. Comparison in linguistics as a separate category began to be studied from the twentieth century and became a topic of research by Uzbek, Russian, Chinese and other linguists. Studies of comparative constructions have revealed the grammatical features of comparative constructions in the Chinese language, the peculiarities of the construction of these constructions, their classification according to semantics and structure. However, it should be noted that the issue of gradation in comparative constructions has so far remained unstudied in monographic terms. This article focuses on the expression of the gradation relationship in comparative constructions in modern Chinese, and explores the methods by which gradation occurs when comparative constructions occur.

Keywords: compare, comparison, analogy, comparative degree, object of comparison, subject of comparison, construction, gradation.

Kirish. Jahon tilshunosligida qiyoslash inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladigan, insonning dunyoni bilish jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan, tashqi olamni idrok etishning keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Tilshunoslikda bilish faoliyatiga xos qiyoslash kategoriyasi XX asrdan boshlab tilshunoslikda alohida kategoriya sifatida o'rganila boshladi.

Dunyo tillarining deyarli barchasida qiyoslash kategoriyasi mavjud, ammo ularning qurilishi, shakllanish qonuniyatlari har bir tilda muayyan xususiy tomonlar bilan xarakterlanadi. Qiyoslash turli fanlar: matematika, mantiq, psixologiya, falsafa, tilshunoslik fanlarining universal tushunchasi bo'lib, bu hodisani o'rganayotgan har bir fan o'zi uchun muhim jihatiga e'tibor qaratadi, bu esa qiyoslashning ko'p qirrali ekanligini isbotlaydi. Shu nuqtayi nazardan, qiyoslashni dunyo tillari misolida tadqiq etish bugungi kun tilshunosligining muhim masalalaridan biridir.


Tilshunoslikda boshqa fanlardagi kabi, bir-biriga zid ma'no yoki mazmun, hatto fikr ifodalovchi tushunchalar mavjud. Bunday muqobil tushunchalar ifoda materialining ko'lamiga va ifoda usuliga ko'ra, o'zaro qarama-qarshi bo'lgan ma'no, mazmun va fikrni yuzaga chiqarishi mumkin. "Til birliklari o'rtasidagi tadrijiy darajalanish (graduonimiya)ni matematik tarzda manfiy va musbat qutblarga ajratishimiz mumkin" [1;168-b.].

Modomiki, ikki til birligi o'zaro qarama-qarshi yo'nalish kasb etgan ekan, ular o'rtasida ham, albatta, o'z mustaqil yo'nalishiga ega bo'lgan birliklar bo'lishi, tabiiy. Bu birliklarning yo'nalishlari tadrijiy ravishda bir tarafdin ikkinchi tarafga qarab og'ib boradi. Oraliq, mo'tadil nuqta (nol)dan o'tadi va tugal bir qarama-qarshilik kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi va manbasi. Ushbu maqolada mavzuni yoritish yuzasidan to'plangan materiallar analiz, sintez, deskriptiv, tavsiflash usullaridan foydalanilgan. Ilmiy maqola uchun manba sifatida Luy Shusianning "现代汉语八百词" (Hozirgi xitoy tilida sakkiz yuz so'z) (北京: 商务印书馆出版社, 1981) asaridan foydalanildi. Shuningdek, mazkur dissertatsiya doirasida hozirgi xitoy tilida qiyoslash konstruksiyalarini jamlash va tadqiq etishda 2000-yildan keyingi xitoy tilining leksikografik materiallariga ham murojaat qilindi.

Tahlil va natijalar. Til birliklari o'rtasidagi tadrijiy darajalash gradatsiya bo'lib, u matematik tarzda manfiy va musbat qutblarga ajraladi. Bunda o'zaro qarama-qarshi yo'nalish kasb etgan til birliklari o'rtasida o'z mustaqil yo'nalishiga ega bo'lgan birliklar tadrijiy ravishda bir tarafdin ikkinchi tarafga qarab og'ib boradi va mo'tadil nuqta, noldan o'tib, tugal bir qarama-qarshilik kasb etadi. Unga quyidagicha misol keltiramiz: 1. 狗大, 熊猫更大, 大熊猫最大. *Gǒu dà, xióngmāo gèng dà, dàxióng zuì dà.* Kuchuk – katta, panda – anchayin katta, fil juda ham katta.

1-chizma



Bu yerda gradatsiya kuchuk, panda va filning kattaligi 0 dan musbat qutbga qarab yo‘nalishi orqali ifodalanmoqda. Qiyoslash konstruksiyalarida esa gradatsiya munosabati to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki muayyan boshqa hukmning ifodalayotgan natijasiga nisbatan namoyon bo‘ladi. Masalan: 2. 熊猫比狗大, 大熊猫比熊猫更大, 大熊猫比狗最大. *Xióngmāo bǐ gǒu dà, dàxióng bǐ xióngmāo gèng dà, dàxióng bǐ gǒu zuì dà. Panda kuchukdan katta, fil pandadan kattaroq, fil kuchukdan juda ham katta. Ya’ni 狗 gǒu kuchuk kattaligi o‘rtacha kattalikda bo‘lib, 0 dan joy olgan, 熊猫 xióngmāo panda katta bo‘lib, 1 da joylashgan, 大熊猫 dàxióng ulkan 2 dan joy olgan. Bu yerda gradatsiya to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, me‘yoriy deb olingan kuchukning kattaligiga qiyoslash orqali, nisbat berilgan holda amalga oshmoqda. Bunda gradatsiya ma’lum bir vaqt oralig‘ida emas, balki belgi, xususiyat, jarayon, harakat yoki holat orqali aynan o‘sha vaqtda namoyon bo‘lmoqda.*

Demak, qiyoslash konstruksiyalari uzluksiz vaqt davomidagi gradatsiya va jarayon vaqtidagi gradatsiyani ifodalovchi konstruksiyalarga bo‘linib, jarayon vaqtidagi gradatsiyaning ifodalanishi ham ikki guruhga bo‘linadi: birinchisi darajalardagi o‘zaro farqni, baland yoki pastlikni ifodalovchi guruh bo‘lib, bunga 比 *bǐ*, 不比 *bùbǐ*, 不如 *bùrú*, 没有 *méiyǒu* ishtirokidagi konstruksiyalar; ikkinchisi darajalarning o‘zaro teng yoki teng emasligini ifodalovchi guruh bo‘lib, bunga: [跟 *gēn*不一样 *bù yíyàng*], [跟 *gēn* ...相同 *xiāngtóng*], [跟 *gēn*相似 *xiāngsì*], [跟 *gēn* ...近似 *jìnsì*], [跟 *gēn*类似 *lèisì*], [跟 *gēn*.... 不一样 *bù yíyàng*], [不跟 *bùgēn*....一样 *yíyàng*], [(没 *méi*) 有 *yǒu*....(那么 *nàme* /这么 *zhème*)...], [...(和 *hé*)...完全两样 *wánquán liǎngyàng*], [...就是不一样 *jiùshì bù yíyàng*], [A跟 *gēn* B....差不多 *chàbuduo*] ishtirokidagi konstruksiyalar kiradi.

Darajaning teng yoki notengligini ifodalovchi qiyoslash konstruksiyalari ham, o‘z navbatida, farqlash yoki o‘xshatish orqali amalga oshishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi. Uni quyidagi jadval orqali ko‘rib chiqamiz:

1-jadval

Xitoy tilidagi qiyoslash mazmunli konstruksiyalarning farqlash yoki o‘xshatish orqali amalga oshishiga ko‘ra tasnifi


Farqlash orqali ifodalanuvchi konstruksiyalar	O‘xshatish orqali ifodalanuvchi konstruksiyalar
[A跟 <i>gēn</i> B ... 一样 <i>yíyàng</i>]	[A(没)有 B (那么/这么)....]
[...就是不一样 <i>jiùshì bù yíyàng</i>]	[A跟 <i>gēn</i> B....相同 <i>xiāngtóng</i>]
[...(和 <i>hé</i>)...完全两样 <i>wánquán liǎngyàng</i>]	[A跟 <i>gēn</i> B....相似 <i>xiāngsì</i>]
[A跟 <i>gēn</i> B 不一样 <i>yíyàng</i>]	[A跟 <i>gēn</i> B....近似 <i>jìnsì</i>]
[A不跟 <i>bùgēn</i> B一样 <i>yíyàng</i>]	[A跟 <i>gēn</i> B....类似 <i>lèisì</i>]
	[A跟 <i>gēn</i> B....差不多 <i>chàbuduo</i>]

Ta’kidlash joizki, qiyoslash o‘xshatish orqali ham amalga oshadi va bu konstruksiyalar qiyoslash mazmunidagi gaplarning eng muhim turlaridan biri hisoblanadi. Ya’ni, qiyoslanayotgan obyektga to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, o‘xshatish orqali qiyoslanadi. Bunda o‘xshatish asosida ham qiyoslash bo‘lganligi uchun, qiyoslash formulasidan foydalaniladi [A(βV)S]. “To‘liq o‘xshatishda to‘rt element: 1) o‘xshagan narsa; 2) o‘xshatilgan narsa; 3) o‘xshash sifat; 4) o‘xshatish qo‘shimchasi mavjud bo‘ladi” [3;263-b.].

Jarayon vaqtidagi gradatsiyani ifodalovchi qiyoslash konstruksiyalarining semantik tahlilidan ayon bo‘ladiki, 比 *bǐ* old ko‘makchisi sifat va darajalarning o‘zaro farqini, baland yoki pastligini ifodalash uchun qo‘llanadi. Qiyos obyekti 比 *bǐ* old ko‘makchisi yordamida taqqoslanayotgan bo‘lsa, kesim taqqosning natijasini ifodalab keladi. Semantik jihatdan ega va kesimning orasidan hol joy olib, 比 *bǐ* old ko‘makchisi hol vazifasini bajaradi. [A (Ega)+比 B (hol)+kesim]. Konstruksiyada kesim vazifasida sifat, fe’l, sifatli so‘z birikmasi, fe’lli so‘z birikmasi, ega-kesimli so‘z birikmasi ishlatilishi mumkin. Masalan: 刘继武激动地说: “爷爷,你比我更懂得枪的用处,你比我更喜欢这支枪”. *Liú Jìwǔ jīdòng de shuō: “Yéye,nǐ bǐ wǒ gèng dǒngde qiāngde yòngchù, nǐ bǐ wǒ gèng xǐhuan zhè zhī qiāng”*. Liu Dzi U hayajonlanib gapirdi: “Buva, miltiqdan foydalanishni mendan ko‘ra yaxshi bilasiz, bu miltiqni mendan-da yaxshi ko‘rasiz”. Bu yerda “men”ing miltiqdan foydalanishidan ko‘ra “buvam”ning miltiqdan foydalanishi yaxshi ekanligi va “men”ing miltiqni yaxshi ko‘rishiga nisbatan “buvam”ning miltiqni yaxshi ko‘rishi kuchliroq ekanligi ifodalanmoqda. Mazkur jarayon vaqtidagi gradatsiya ifoda usuliga ko‘ra mantiqiy, mohiyatiga ko‘ra kli-maks, baholash nuqtayi nazaridan, subyektiv ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda.

不比 *bùbǐ* tuzilish jihatidan qiyosiy gaplarning inkor shakli bo'lib, uni quyidagicha ifodalashimiz mumkin: "Oldingisi keyingisiga teng emas ...", ya'ni, "A B dek emas", "B A dek ... deyish mumkin emas", "keyingisi oldingisiga nisbatan ..." deb bo'lmaydi [4;163-b.]. Masalan: 今天不比昨天冷。 *Jīntiān bùbǐ zuótiān lěng*. Bugun kechagidan sovuq emas.

3-chizma



Ushbu misolga ko'ra, kunning iliqqligi chizmada ko'rsatilgan me'yoriy 0 dan joy olsa, kunning sovuqligi 0 dan manfiy -3, -4 tomon siljiydi. *Bugunning kechagidan sovuq emasligi* esa musbat tomonga og'ib -2, -1 da namoyon bo'lmoqda. Bu yerda gradatsiya kunning iliqqligi, ya'ni, me'yoriy 0 ga nisbatan emas, balki kechagi kunning sovuqligiga nisbatan ko'tarilishi mazmunini ifodalash orqali namoyon bo'lmoqda.

不比 *bùbǐ* konstruksiyasini [A没有 *méiyǒu* B] (A B dek emas) yoki [A不如 *bùrú* B] (A B ga teng kelmaydi) shakllari bilan adashtirib yubormaslik zarur. Ularning tarjimasi turlicha ma'nolarni ifodalaydi. Masalan: 1. 这件衣服不比那件衣服长。 *Zhè jiàn yīfú bùbǐ nà jiàn yīfú zhǎng*. Bu kiyimni unisidan uzun deb bo'lmaydi. 2. 这件衣服没有那件衣服长。 *Zhè jiàn yīfú méiyǒu nà jiàn yīfú zhǎng*. Bu kiyim unisidek uzun emas. 3. 这件衣服不如那件衣服长。 *Zhè jiàn yīfú bùrú nà jiàn yīfú zhǎng*. Bu kiyimning uzunligi unisidek emas. 不如 *bùrú* konstruksiyasi biror-bir shaxs yoki predmetning boshqa bir shaxs yoki predmetdan ustun emasligini ifodalab keladi: 坐火车不如坐飞机快。 *Zuò huǒ chē bùrú zuò fēi jī kuài*. Poyezdda borish samolyotda borish kabi tez emas. Bu yerda samolyot tezligining poyezd tezligidan yuqori ekanligini ifodalash orqali gradatsiya ifodalanmoqda.

Narsa, hodisa va holatlarning o'zaro bir xilligini ifodalovchi [A跟 *gēn* B 一样 *yīyàng*] konstruksiyasi va uning inkor shakli: [A跟 *gēn* B...不一样 *bù yīyàng*], [A不跟 *bùgēn* B ...一样 *yīyàng*] orqali ifodalanib, ushbu konstruksiyada 一样 *yīyàng* o'rniga, 相同 *xiāngtóng* /相似 *xiāngsì* /近似 *jìnsì* /类似 *lèisì* so'zlaridan ham foydalanish mumkin. Aytish joizki, old ko'makchi hisoblangan 跟 *gēn* so'zini 与 *yǔ*, 和 *hé*, 同 *tóng* kabi so'zlar bilan almashtirib foydalanish mumkin, aynan shu xususiyat uning og'zaki nutqdagi qulayligini ta'minlab beradi. Masalan: 这本书跟那本书一样厚, 大概都是四百多页 [5; 236]. *Zhèběn shū gēn nàběn shū yīyàng hòu, dàgài dōushì sībǎi duō xié*. Bu kitob bilan anavi kitob bir xil qalinlikda, jami taxminan to'rt yuz betdan ko'proq. Ushbu misolda anavi kitobning qalinligi bu kitobga nisbatan anglashilmoqda va ikkita kitobning ham bir xil qalinlikda ekanligi mazmunini berish orqali jarayon vaqtidagi darajalarning tengligi ifodalanmoqda. Bunda, mohiyatiga ko'ra, klimaks, baholash nuqtayi nazaridan obyektiv gradatsiya namoyon bo'lgan, deb xulosa qilish mumkin.

Ma'lumki, 有 *yǒu* fe'li ikki shaxs yoki ikki xil harakatning xususiyatini, vaziyatini, miqdorini yoki darajasining o'xshash taraflarini taqqoslashda qo'llaniladi. Xitoy tilida 有 *yǒu* orqali qiyoslash ifodalan-ganda, A B ning darajasiga yetganligi ifodalanadi. 有 *yǒu* fe'lidan keyin, odatda, 这么 *zhème*, 这样 *zhèyàng*, 那么 *nàme*, 那样 *nàyàng* qo'llanadi, lekin 一样 *yīyàng* qo'llanilmaydi. 没有 *méiyǒu* orqali inkor ma'nosi ifodalan-ganda, u ham 比 *bǐ* old ko'makchisi ishtirokidagi qiyos konstruksiyasining inkor shakli, ham 有 *yǒu* ishtirokidagi qiyos konstruksiyasining inkor shakliga kirishi mumkinligini kuzatamiz. Eng muhim, e'tibor qara-tiladigan jihat shundaki, xitoy tilida [A比 *bǐ* B....一样 *yīyàng*], [比 *bǐ* ...不一样 *bù yīyàng*], [有 *yǒu*...一样 *yīyàng*] kabi modellar mavjud emas. Masalan: 1. 这家商店的东西没有那家的东西那么便宜 [6; 700]. *Zhè jiā shāngdiàn de dōngxī méiyǒu nà jiā de dōngxī nàme biàn zhī*. Bu do'konning mahsuloti anavi do'konning mahsulotichalik arzon emas.

[跟 *gēn*....差不多 *chàbùduo*] konstruksiyasi ifodalanayotgan darajalarning o'zaro yaqinligini, lekin aynan bir xil emasligini bildiradi. (和 *hé*)...完全两样 *wánquán liǎngyàng* ikki shaxs, harakat-holat yoki predmetning bir-biriga o'xshamasligini, batamom ikki xil, umuman, boshqa-boshqa ekanligini, 就是不一样 *jiùshì bù yīyàng* esa ma'lum shaxs yoki predmetlar o'rtasida, umuman, o'xshashlik yo'qligini ifodalaydi. O'xshatish orqali qiyoslash amalga oshganida, bunday gaplarda hukm to'g'ridan to'g'ri, bevosita emas, balki muayyan boshqa hukmga nisbatan ifodalanadi. Sof qiyoslashda esa bir predmet, jarayon, hodisalar ularni o'zaro o'xshatish maqsadida emas, balki birini ikkinchisidan farqlash maqsadida qiyoslanadi. De-mak, sof qiyoslash bilan birga o'xshatish orqali ifodalanadigan qiyoslash konstruksiyalari ham mavjud bo'-

lib, bunda belgi va xususiyat, harakat, jarayon yoki holat qiyoslanayotgan predmetlarga turli darajada emas, balki aynan bir xil darajada tegishli bo'ladi.

Xulosa. Tilshunoslikda qiyoslash XX asrdan boshlab alohida kategoriya sifatida o'rganila boshladi. Ushbu mavzu o'zbek, rus, xitoy va boshqa tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Qiyoslash konstruksiyalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarining grammatik xususiyatlari, ushbu konstruksiyalarning yasaliishidagi o'ziga xosliklar yoritib berilgan, ularning semantik va tuzilishiga ko'ra tasnifi amalga oshirilgan. Ammo, ta'kidlash joizki, qiyoslash konstruksiyalarida gradatsiya masalasi shu vaqtga qadar monografik yo'sinda tadqiq etilmagan.

Qiyoslash morfologik va sintaktik belgilar orqali namoyon bo'ladi. Agar morfologik belgilar bilan ifodalansa, sifat va ravish so'z turkumlari doirasida morfologik sathda o'rganiladi. Agar gap qurilishi sintaktik belgilarga asoslangan bo'lsa, sintaktik sathda konstruksiyalar asosida o'rganiladi. Xitoy tilshunosligida qiyoslash konstruksiyalarining tadqiqi bo'yicha olib borilgan ishlar mazkur tilda qiyoslash morfologik usullar vositasida emas, balki muayyan sintaktik konstruksiyalar orqali amalga oshishi bilan boshqa tillardan farq qilishini ko'rsatadi. Xitoy tilida qiyoslash konstruksiyalari ishtirokisiz qiyoslash mazmunli gaplarni tuzish mumkin emas.

Qiyoslash mazmunidagi gaplarida hamisha murakkab mazmuniy munosabat ifodalanib, ularda eng kam ikkita semantik propozitsiya bo'ladi. Bu ikki propozitsiya o'zaro *antiteza*, *farqlash* va *o'xshatish* vositasida bog'lanadi. O'xshatish negizida ham qiyoslash mavjud bo'lib, o'xshatish bir predmetni boshqasiga ular o'rtasidagi umumiy bo'lgan xususiyatga ko'ra qiyoslashdir.

Xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalari ifoda mazmuniga ko'ra, uzluksiz vaqt davomidagi va jarayon vaqtidagi gradatsiyalar guruhlariga bo'linadi. Uzluksiz vaqt davomidagi gradatsiya chegaralanmagan vaqt oralig'ida ma'noning bosqichma-bosqich kuchayib yoki pasayib borishini ifodalovchi [一...比一...+X], [...越来越+X], [...越发+X] konstruksiyalari vositasida voqelanadi. Bunda [一...比一...+X] – vaqt o'lchovida asta-sekin o'zgarib turadigan doimiy nuqta, [...越来越+X] – vaqt o'lchovida cho'zilgan diogonal chiziq, [...越发+X] – vaqt o'lchovining ikki nuqtasi bo'lib, ushbu konstruksiya faqat grammatikaga oid ilmiy manbalarda uchraydi.

Jarayon vaqtidagi gradatsiyaning ifodalanishi esa ikki xil: birinchisi darajalardagi o'zaro farqni, uning baland yoki pastligini ifodalovchi guruh bo'lib, bunga 比, 不比, 不如, 没(有) ishtirokidagi konstruksiyalar kiradi; ikkinchisi, darajalarning o'zaro teng yoki notengligini ifodalovchi konstruksiyalar guruhi bo'lib, u ham, o'z navbatida, ikkiga bo'linadi. Birinchisi, darajaning teng yoki notengligi *farqlash* orqali ifodalovchi konstruksiyalar: [跟....(不)一样], [...(和)...完全两样], [...就是不一样]; ikkinchisi, darajaning teng yoki notengligini *o'xshatish* orqali ifodalovchi konstruksiyalar: [A跟B....相同], [A跟B...相似], [A跟B....近似], [A跟B....类似], [A跟B....差不多], [A(没)有B (那么/这么)+...].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фан. д-ри ... дисс., Тошкент, 1997, 189 бет.
- (2). Абдуллаева Н. Инглиз ва ўзбек халқ мақолларидаги градуонимик муносабатларнинг лингвопрагматик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. д-ри. ... дисс., Тошкент, 2019, 150-бет.
- (3). Хомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1967, 263-бет.
- (4). Очилов О.М. Хитой тилида қиёсий гапларнинг шакли ҳақида. Хитойшунослик факультетининг биринчи илмий-амалий конференцияси материаллари, Тошкент, 2015, 163–173-бетар.
- (5). 现代汉语八百词. 北京: 商务印书馆出版社, 1980. 760页.
- (6). 现代汉语模范字典. 北京: 中国社会科学出版社, 2000年. 1683页.
- (7). 新华词典. 北京: 商务印书馆, 2001年. 1412页.

Ochilova Ozoda Baxtiyorovna (UrDU tayanch doktoranti: ozoda.ochilova.90@mail.ru)
OMON MATJONNING “NAJMIDDIN KUBRO” FOJIASIDA KUBRO FENOMENI

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoir Omon Matjonning “Najmiddin Kubro” asarida Shayx Najmiddin Kubro fenomenining yaratilishi, o'ziga xosliklari haqida gap boradi. Omon Matjon tragediyada qahramonlar qiyofasini, ularning xatti-harakatlarini realistik tasvirlash yo'lidan boradi. Bu, ayniqsa, bosh qahramon tasvirida yorqin ko'rinadi. Ishda asarning bir qancha o'rinlarida Shayx Najmiddin Kubroning qanchalik buyuk avliyo, donishmand-mutafakkir, ilohiy-ruhoniylar sifatlar egasi bo'lmasin, u o'zi yashagan davr,

jamiyat bilan hisoblashishga majbur bo'lganligi, zamon "o'yin"lari oldida ojiz qolganligi haqqoniy aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Shayx Najmiddin Kubro, tragediya, avliyo, Omon Matjon, fenomen, realistik tasvir, tarixiylik, badiiy obraz.

Очилова Озода Бахтияровна (докторант УрГУ)

ФЕНОМЕН КУБРО В ТРАГЕДИИ АМОНА МАТДЖОНА «НАЖМИДДИН КУБРО»

Аннотация. В данной статье говорится о создании и особенностях феномена шейха Наджмуддина Кубро в произведении «Наджмиддин Кубро» поэта Амона Матджона. Амон Матджон идет по пути реалистического описания внешности героев и их действий в трагедии. Особенно это заметно в образе главного героя. В некоторых частях произведения правдиво отражено то, что, каким бы великим святым, мудрецом-мыслителем, божественно-духовными качествами ни был шейх Наджмуддин Кубро, он был вынужден считаться со временем и обществом, в котором жил, и был бессилен перед «играми» времени.

Ключевые слова: Шейх Наджмуддин Кубро, трагедия, святой, Амон Матджон, явление, реалистический образ, историчность, художественный образ.

Ochilova Ozoda Bakhtiyorovna (a Doctoral Student of UrSU)

KUBRO PHENOMENON IN THE TRAGEDY "NAJMIDDIN KUBRO" BY AMON MATJON

Annotation. This article talks about the creation and peculiarities of the phenomenon of Sheikh Najmuddin Kubro in the work "Najmuddin Kubro" by the poet Amon Matjan. Amon Matjon follows the path of realistic description of the appearance of the characters and their actions in the tragedy. This is especially evident in the image of the main character. In several parts of the work, no matter how great a saint, sage-thinker, theological-spiritual qualities Sheikh Najmuddin Kubra was, he was forced to reckon with the time he lived in, the society, and was powerless in front of the "games" of the time truthfully reflected.

Key words: Sheikh Najmuddin Kubro, tragedy, saint, Omon Matjon, phenomenon, realistic image, historicity, artistic image.

Kirish. Barcha zamonlarda ham tarixiy mavzuga murojaat qilish, har bir davrning va har bir avlodning eng zarur ehtiyoji sanalgan. Chunki xalq tarixini chuqur o'rganish, ma'naviy qadriyatlarni tiklash, xalqni milliy an'analarga hurmat va ehtirom, ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash jamiyatni buyuk istiqbolga eltuvchi omillardan biridir. Yurtimiz istiqbolga erishgandan keyingi yillarda yaratilgan tarixiy asarlarda tasvirlanayotgan davr voqeliklarini ifodalashda tarixiy haqiqatga mumkin qadar tobora ko'proq darajada yaqinlashishga harakatlar seziladi. Shuningdek, tarixiy qahramon obrazini gavdalantirishda ham qanchalik yuksak shaxsiyat bo'lmasin, ortiqcha ideallashtirib yubormasdan, uni ham Olloh yaratgan ojiz banda ekanligini real tasvirlash xususiyatlari teranroq ko'rinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Adabiyotshunos A. Alimbekov "Tarixiy siymolarga bir inson sifatida qarash, ularning ko'ngil evrilishlarini berishga harakat qilish" [1;3-b.] bugungi tarixiy asarlarga xos jihat ekanligini qayd qiladi. Bu sifatlar dramatik turdagi asarlarga ham xos bo'lib, mustaqillik yillarida yaratilgan qator asarlarda tarixiy shaxslar tasvirida real haqiqatga tayanish, qahramonni butun murakkabliklari bilan badiiy aks ettirish kuzatilmoqda. Zero, tarixiy fakt-hujjatlarni chuqur o'rganib, tahlil qilgan muallif oldida o'sha o'tmishni va undagi tarixiy shaxslarni to'laqonli badiiy aks ettirish vazifasi turadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, "Tarixiy asar yaratishda o'ziga xos badiiy shartlilik talablari mavjud. Ijodkor tarixiy faktni aynan ko'chirib emas, unga badiiy to'qima obrazlar qo'shib, voqelikni xayolga to'liq tasavvur etib, tarixiy voqelikni badiiy haqiqatga aylantirishda bir qancha mezonlarga tayanishi lozim. Masalan, o'tmishni tasvirlash uchun, tabiiy ravishda, o'sha davr leksikasini asarda qo'llashi, tarixiy milliy koloritni asarning ruhiga singdirib yuborishi lozim bo'ladi. Qolaversa, tarixiy asar fonida zamonaviy kun tartibdagi muhim ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, falsafiy g'oyalarga ham jiddiy e'tibor berilishi lozim" [5, 32-b.]. Xuddi shunday jihatlarni Omon Matjonning tarixiy mavzuda yozilgan asarlarida ham kuzatamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Shoir Omon Matjonning "Najmiddin Kubro" asarida Shayx Najmiddin Kubro hayotining o'z yurti – Xorazmda kechgan so'nggi davrlari qalamga olinadi. Bu davrda Xorazmda Alouddin Tekashning o'g'li Qutbiddin Muhammad hukmronlik qilgan. Shu davr voqeligini, o'sha tarixiy jarayonni shoir dramatik janr imkoniyatlari darajasida badiiy aks ettiradi. Tarixiy fojida Omon Matjon Shayx Najmiddin Kubroning tasavvuf allomasi, ma'naviy-ruhiy, jismoniy qudrat egasi, eng muhimi, yurt qahramoni, milliy vatanparvar sifatidagi adabiy-tarixiy obrazini yaratishga harakat qiladi. Unda buyuk ilm sohibining tabiat va inson, tiriklik va o'lim, ezgulik va yovuzlik haqidagi qarashlari asosida tarixiy jarayonning asosiy ikki nuqtasi – davr va inson munosabati yotadi. Bu munosabatda qahramon xarakteridagi shoir-

lik donishmandlikda, donishmandlik valiylikda, valiylik barkamollikda, barkamollik esa mutasavvuflikda namoyon bo'lib, mukammal bir siymoni gavdalaniradi. Bunda, tabiiyki, qahramon yashagan davr, shart-sharoit, umuman, real voqelik adabiy xarakter shakllanishidagi asosiy zamin va omildir. Obyektiv tarixiy faktga aylangan bu voqelik "o'tmishning individual va umumiy tomonlarini, kishilar kayfiyati, axloqi, madaniyat darajasi, psixologiyasi va dunyoqarashini umumlashtirish uchun ham xizmat qiladi" [3;15-b.].

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, Najmiddin Kubro haqida yozilgan qator tarixiy manbalar va kubroshunos olimlarning tadqiqotlarida uning ilohiy karomat sohibi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy qudrat egasi bo'lganligi ko'p bora qayd etiladi. Jumladan, A.Jomiyning "Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds" asarida Najmiddin Kubroning avliyoligi, karomatlari haqida bir qancha rivoyatlar keltiriladi. A.Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul futuvvat" asarida ham Shayxning kuniyat ("kunyat" – arablarda hurmat yuzasidan beriladigan laqab)lari sanalib, ta'lim olgan pir-u ustozlari, muridlari haqida ma'lumotlar keltiriladi va bular ishonchli manbalar sifatida ahamiyatlidir. Tasavvufshunos olim N.Komilov Najmiddin Kubro haqida juda ko'plab manbalarni o'rganadi va ularga tayanib yozgan "Najmiddin Kubro" risolasida [2;31-b.] ulug' mutasavvuf donishmandning sarguzashtlarga, turli rivoyatlarga to'la hayoti, uning avlodlarga qoldirgan boy irfoniy-tasavvufiy hamda adabiy merosi haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi. Ma'lumki, Omon Matjon ham mumtoz adabiyot, Najmiddin Kubro hayoti va Kubraviya ta'limoti, shuningdek, Xorazm tarixi xususida yetarli bilimlarga ega bo'lgan nuktadon shoir. Omon Matjonning barcha tarixiy mavzudagi asarlari bunday deyishimizga yetarli asos bo'la oladi. Omon Matjon "Shayx Najmiddin Kubro" tarixiy fojiasini yaratishda ulug' alloma haqida yozilgan tarixiy manbalarga, tasavvufiy asarlarga (kubraviya ta'limoti qonun-qoidalariga), Kubro haqidagi rivoyatlarga va avliyoning o'z asarlariga tayangan va bu asarni o'qish davomida yaqqol namoyon bo'ladi. Muallif har bir detalga, obrazlarning xatti-harakatlariga, ularning ruhiy kechinmalari va o'y-xayollarigacha o'sha davr ruhini mahorat bilan singdiradi. Tragediyada Najmiddin Kubro o'zining zamon zayli, hayot mazmuni va inson qadri xususidagi dunyoviy va ilohiy-falsafiy qarashlarini uyg'unlashtira olgan komil inson obrazida gavdalanadi.

Shuningdek, "Shayx Najmiddin Kubro" tragediyasida Shayx obrazining badiiy talqini orqali shoir allomaning jismoniy va ma'rifiy qudratini uyg'un tarzda tasvirlashga erisha olgan. Besh qismdan iborat bu tarixiy fojiada 75 yoshlardagi Shayx Najmiddin Kubro, Alouddin Muhammad Xorazmshoh, uning onasi Turkan xotun, Xorazmshohning o'g'illari: sarkarda Jaloliddin Manguberdi, Qutbiddin O'zloq shoh (taxt vorisi), Rukniddin Gursanji, Xumor tegin (Turkan xotunning ukasi) kabi tarixiy obrazlar ishtirok etadi. Fojining remarkasida o'n beshdan ortiq obrazlar beriladi va voqealar, asosan, Shayx Najmiddin Kubro xonaqohi va Xorazmshoh saroyida bo'lib o'tadi.

Asarning dastlabki pardasida Abdul Jalil bilan Jaloliddin Manguberdining jiyani Oychechak suhbatida Najmiddin Kubroning bashoratli avliyo ekanligi, juda sergak va ziyrakligi, zohirlikni ayon qiluvchi pir bo'lganligi badiiy lavhalarda tasvirlanadi. Abdul Jalil Oychechakka "Pirim Gurganjday ulug' shaharda o'zga bir begona qadamlar ovozi eshitganlarini aytdilarkim, goh chini, goh kinoyasini anglab bo'lmas" [4;7-b.], deydi. Hali Chingizxon xavfidan bexabar Xorazmshoh kayf-u safo ichida, Turkon xotun esa o'z urug'-aymog'ini boyitib, nasf o'pqonida "huzurlanib" yashab yurgan paytida Shayxning bu balo-ofatni oldindan sezgani belgisi edi. Shayx "begona qadamlar" deganida mo'g'ullarning o'z ona yurti – Xorazmga bostirib kelishlarini favqulodda ziyraklik bilan bashorat qiladi. Shu o'rinda, Omon Matjon Najmiddin Kubro portretining muhim qirrasini, beqiyos ichki ruhiy qudrati va ilohiy siymoligini zikri samo paytida muridlar bilan savol-javob jarayonida, ma'naviy va jismoniy yuksakligini esa bevosita konfliktlar jarayonida real tasvirlaydi. Ma'lumki, tarixiy asarda ijodkor shaxsning ijodiy izlanishlari, badiiy va ilmiy mahsuloti u haqdagi asarlar uchun zarur materiallardan biridir.

Omon Matjon tragediyada qahramonlar qiyofasini, ularning xatti-harakatlarini realistik tasvirlash yo'lidan boradi. Bu, ayniqsa, bosh qahramon tasvirida yorqin ko'rinadi. Asarning bir qancha o'rinlarida Shayx Najmiddin Kubroning qanchalik buyuk avliyo, donishmand-mutafakkir, ilohiy-ruhoniylar sifatlar egasi bo'lmasin, u o'zi yashagan davr, jamiyat bilan hisoblashishga majbur bo'lganligi, zamon "o'yin"lari oldida ojiz qolganligi haqqoniy aks ettiriladi. Tragediyaning birinchi pardasida Xorazmshohlar saroyidagi muhitdan, otasining ojizligidan qiynalgan sarkarda Jaloliddin so'zsiz, jimgina Shayxning oldiga kelib o'tiradi. Shunda Shayx Najmiddin Kubro unga: "Seni ovutmoqqa, dalda bermoqqa so'zim qolmadi. Qaytaga nima boradadir seningmi ko'maging menga asqoturday ko'rinadi. Tavba qil-u senga xalal berayotganlardan uzlatga chekin desam, behad ko'p jonlarning jon ilinji senda! Dunyo havasidan kech desam, anga na tobing, na havasing bor! Bardosh, matonat tilay desam, baaynih Ko'hi Qofsan! Mening esa kuch-quvvatim hovuchdagi suvday, har gal barmoqlarim orasidan tushib ketib izza qilmoqda..." [4;1-b.], deydi. Ko'rinadiki, bu o'rinda muallif ijobiy qahramonlar hayotidagi eng ziddiyatli, keskin jihatlarni va bunday vaziyatlardagi

chorasizlik holatini nihoyatda ta'sirli va tabiiy tasvirleydi. Najmiddin Kubro dunyoviy va diniy bilimlarni yuksak darajada egallagan, ilohiy sezgi sohibi bo'lgan buyuk avliyo sanalsa ham, davr dardlaridan, jamiyat va xalq hayotidan uzilib ketolmaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Omon Matjon tragediyadagi har bir tarixiy obrazni qunt bilan o'rganadi, qahramonlar xarakteridagi o'ziga xos jihatlar alohida e'tibor qaratadi. Tarixiy shaxslar obrazini to'laqonli gavdalanitirishda badiiy to'qima qahramonlar xarakterlari bilan chambarchas bog'lagan holda aks ettiradi. Shuningdek, obrazlar harakat qilayotgan XIII asrning ijtimoiy-siyosiy qiyofasi, ruhi va xalq hayotining tub mohiyati ham haqqoniy kartinalarda yoritiladi. Shayx Najmiddin Kubro obrazi ijtimoiy muhit va tarixiy voqealar bilan birgalikda bog'lab ko'rsatiladi. Shayxning ijtimoiy, ruhoni, insoniy siymosi bir xilda voqealar fonida baravar namoyon bo'ladi. Omon Matjon tragediyada Xorazmshoh, Turkan xotun, Jaloliddin, O'zloq shoh kabi qator tarixiy va Abdul Jalil, Abdul Xalil, Oychechak, maxfiylar kabi to'qima obrazlar vositasida Shayx Najmiddin Kubroning turli vaziyatlardagi jismoniy, ruhiy, ma'naviy qiyofasini juda hayotiy va ta'sirli yarata olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Алимбеков А. Тарих жозибаси. “Моҳият”, 2005, 30 декабрь.
- (2). Комилов Н. Нажмиддин Кубро. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Т., 1995, 31-бет.
- (3). Мирвалиев С. Тарихий роман табиатида доир. “Ўзбек тили ва адабиёти”, Т., 1971, №1, 15-бет.
- (4). Омон Матжон. Дийдор азиз. “Noshir”, Тошкент, 2011, 87-бет.
- (5). Қўчқорова М. Ўзим ўз қалбимнинг бўлсам Колумби. “Шарқ юлдузи”, 2013, 1-сон.

Turdiyeva Hulkar (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti; E-pochta: turdiyeva@navoiy-uni.uz, hulkar.kamilovna@gmail.com; ORCID ID: 0000-0002-0435-8689)
ABDULLA QODIRIY KECHASIDA SO'ZLANGAN NUTQ

Annotatsiya. O'zbek adabiyotshunosi, jadidshunos olim va tarjimon Sherali Turdiyev XX asr avvalidan mustaqillik yillarigacha va uning davomidagi adabiy jarayon, ma'rifatparvarlar faoliyatlari, taqdir-lari, qatag'on qurbonlari qismatining ochilmagan sahifalarini arxiv materiallarini chuqur o'rgangan hol-da ochib berdi. O'zbek xalqining qardosh xalqlar bilan bo'lgan adabiy aloqalariga salmoqli hissa qo'shdi, tarjima asarlari bilan ko'plab nodir manbalarni o'zbek o'quvchilariga taqdim qildi. Mazkur maqolada 2004-yil Sherali Turdiyev tomonidan yozilgan “Abdulla Qodiriy kechasida so'zlangan nutq” xotiralari yo-ritiladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, o'zbek adabiyoti tarixi, Sherali Turdiyev arxivi.

РЕЧЬ НА ВЕЧЕРЕ, ПОСВЯЩЕННОМ ТВОРЧЕСТВУ АБДУЛЛЫ КОДИРИЙ

Аннотация. Шерали Турдиев, узбекский литературовед, историк и переводчик, на протяжении своей жизни провел множество исследований. Он раскрыл нераскрытые страницы литературного процесса, деятельности просветителей, судеб и участь жертв репрессий, глубоко изучив архивные материалы за период с начала XX века до начала XXI века. Он внес значительный вклад в литературные связи узбекского народа с другими народами. Своими переводами он подарил узбекским читателям множество бесценных источников. Благодаря статье “Речь на митинге, посвященном Абдулле Кадири”, написанной Шерали Турдиевым в 2004 году, мы можем получить информацию о творчестве Абдуллы Кадири и отношении к нему.

Ключевые слова: Абдулла Кадири, Абдулла Каххор, история узбекской литературы, архив Шерали Турдиева.

SPEECH AT THE EVENING DEDICATED TO THE WORK OF ABDULLA KODIRIY

Annotation. Sherali Turdiev, Uzbek literary scholar, historian and translator did a lot of investigations throughout his life. He revealed unopened pages of the literary process, the activities of enlighteners, the fates, and the fate of the victims of repression, with a deep study of archival materials over a period from beginning of XX century until the beginning of XXI century. He made a significant contribution to the literary relations of the Uzbek people with other nations. By his translations, he presented many priceless sources to Uzbek readers. Through the article “Speech at the meeting dedicated for Abdullah Kadiri” written by Sherali Turdiev in 2004, we can get information about Abdulla Kadiri's works and attitudes towards him.

Keywords: Abdullah Kadiri, Abdullah Qahhor, history of Uzbek literature, Sherali Turdiev archive.

Kirish. Olim Sherali Turdiyev umrining so'nggi pallasigacha o'zbek adabiyoti darg'alari va ularning asarlari tadqiqiga alohida mehr berib, betinim mehnat va izlanishda bo'ldi. A.Navoiy, So'fizoda, Mahmud-

Xasanova Xurshida	Kreativ fikrlashni rivojlantirishda steam ta'limiga asoslangan topshiriqlardan foydalanishning ahamiyati	103
Madaminov Azimbek Egamberganovich	Gandbolchilarni darvozobon o'yin texnikasiga o'rgatishda harakatli o'yinlarning o'rni	106
Qurbonova Dilnoza Arslanovna	Ingliz tili darslarida o'smirlar tafakkurini rivojlantirishda neyrolingvistikaning ahamiyati	109
Kamolov Iftixor Baxtiyorovich, Suyunov Navruz Alisher o'g'li	Tez qalamchizgilar ishlash jarayonida diqqat va kuzatishni rivojlantirish	112
Xudayberganov Otabek Erkinovich	Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining voleybol vositalari yordamida kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish	117
Sapayev Umidbek Abdullayevich	Ta'lim jarayonida innovatsiyalarni shakllanish omillari va talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash asoslari	122
Tursunova Gulnoza Qahorovna	Kimyoviy jarayonlarga oid masalalar yechishda talabalarlarning tadqiqotchilik kompetentliklarini takomillashtirish	125
Nabijonova Gulnoza Valijon qizi	Bo'lajak quruvchi-muhandislarning kasbiy kompetensiyasini xorijiy tillar asosida rivojlantirish ilmiy-pedagogik muammo sifatida	130
JURNALISTIKA		
Bekchanova Dilbar Zaripovna	Yechimlar jurnalistikasi va jurnalist surishtiruvi: o'xshashlik va farqlar	134
ILMIY AXBOROT		
Salomova Gavhar Abdinazarovna	Qisqartmalar ingliz tili tilshunosligining bir qismi sifatida	138
Nurabullaeva Kamila Joldasbaevna	Nemis tili darslarida mediatexnologiyalardan foydalanib, nemis tili nutq kompetensiyasini rivojlantirish	140
Yuldashev Doniyor Taxirovich, Ro'zimova Guli	"Oshiqnoma" turkum dostonlaridagi sifatlashlarning ifoda materialiga ko'ra turlari	143
Kushmanov Jasur Bahodirovich, Xudayberganova Gulzoda Xursandbek qizi	O'zbek va ingliz tillarida somatik frazeologik birliklarning tahlili	146
Qodirova Mukaddas Tog'ayevna	Biznes diskursining freym tuzilishi (ingliz va o'zbek tillari tahlilida)	150
Xudaybergenova Zuxra Orazbaevna	Ingliz va qoraqalpoq tillarida "white, black" va "aq, qara" leksemalarining kommunikativ xususiyati	152
Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna	Diniy barqaror birikmalar tarkibidagi leksemalarning etimologik xususiyatlari	155
Muhammadaliyev Mirzohid Nosirjon o'g'li	Amerika qo'shma shtatlaridagi joy nomlari bilan atalgan mashinalarning nomlanishi	158
Begniyazova Gozzal Allamberganovna	Ko'k rang bildiruvchi frazeologizmlarning semantikasi	160
Maxamadtoirova Adiba Botir qizi	Xitoy tilida qiyoslash konstruksiyalarida jarayon vaqtidagi gradatsiyaning namoyon bo'lishi	163
Ochilova Ozoda Baxtiyorovna	Omon Matjonning "Najmiddin Kubro" fojiasida kubro fenomeni	167
Turdiyeva Hulkar	Abdulla Qodiriy kechasida so'zlangan nutq	170
Gaylieva Ogulbay Qurbanmuratovna, Ametova Muxabbat Orazimbetovna	K.Quramboyev – adabiyotlararo aloqani rivojlantirgan olim	172
Тиллябаева Гульсунхон Бахрамовна	Новый взгляд на научное наследие Абу Лайс Самарканди	175
Хакимова Халима Ринатовна	Вопросу о вариативной интерпретации глосс в исторических романах М.И.Шеввердина	178
Mohammad Aref Ansari, Halima Rahmani	Language Barriers in Post-Conflict Peacebuilding: a Linguistic Perspective on Afghanistan	182
Kholibekova Omongul Kenjaboyevna	Linguopsychological Aspect of Children's Literary Texts	185
Khudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna	Lexico-Semantic Features of Phraseological Units Containing the Term Dance	188
Sarimsakova Shoirra	Communication, Culture and the Role of Politeness in Intercultural Communication	191
Karimbaeva Mavluda Madaminovna	Using Paper and Electronic Dictionaries in Translation: Advantages, Disadvantages and Analysis	193

**“ILM SARCHASHMALARI” ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNALI
MUALLIFLARIGA ESLATMA**

1. **“Ilm sarchashmalari”** ilmiy-nazariy, metodik jurnaliga qo‘yiladigan talablar jahon andozalari hamda O‘zbekistonda amal qilayotgan PhD va DSc tadqiqotlari tizimidagi andozalardan kelib chiqadi.
2. Maqola Times New Roman shriftida yozilishi lozim. Shrift hajmi – 14, qator oralig‘i – 1,5, hoshiya chapda 3 sm., yuqori va pastda 2,5 sm., o‘ngda 1,5 sm. bo‘lishi kerak. Maqolalar hajmi 6 sahifadan kam bo‘lmasligi kerak.
3. **O‘zbek tilidagi maqolalar faqat lotin yozuvida qabul qilinadi.**
4. Maqola 1 ta taqriz (qo‘lyozma yoki chop qilinib tasdiqlangan, PDF Jpeg holatida va 1 ta ekspertlar xulosasi bilan (taqriz hamda ekspert xulosasi elektron shaklda ham) qabul qilinadi.
5. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.
6. Tahririyat maqolani qisqartirish va tahrir qilish huquqiga ega.

Maqola xalqaro andozalar talabi doirasidagi quyidagi aniq bandlarga ega bo‘lishi kerak:

Maqola muallifi to‘g‘risida ma’lumot (Author information). Bunda muallif(lar)ning ism-familiyasi va otasining ismi to‘liq yozilishi, muallifning lavozimi, ilmiy unvoni va darjasi, e-maili, telefon raqami hamda maqola taqrizchisi yozilishi kerak. Maqola muallifi to‘g‘risida ma’lumot **o‘zbek, rus** hamda **ingliz** tillarida taqdim etilishi kerak.

Maqola mavzusi (Title). Maqola mavzusi, imkon qadar, qisqa va lo‘nda ko‘rinishda shakllantirilgan bo‘lib, maqolaning tadqiqot yo‘nalishini aniq ifoda etishi lozim. Sarlavha **o‘zbek, rus** hamda **ingliz** tillarida taqdim etilishi kerak.

Maqola annotatsiyasi (Abstract). Maqolalarning qisqacha mazmuni (annotatsiyasi) 5 qatordan kam, 15 qatordan oshmagan holda **o‘zbek, rus** va **ingliz** tillarida beriladi. Unda tadqiqot muammosi, uning dolzarbligi, tadqiqot muammosini ochib berish uchun qo‘llanilgan metodologiya, tadqiqot natijalari, maqolaning to‘la mazmunidan kelib chiqqan holda, muallifning ilmiy va amaliy hissasi qisqacha bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar (Key words). Maqola mazmuni va maqsadini eng qisqa mazmunda ochib beruvchi kalit so‘zlar hisoblanadi. Kalit so‘zlarning har biri asosiy matn tarkibida ko‘proq takrorlanishi tavsiya etiladi. Maqola kalit so‘zlari **o‘zbek, rus** hamda **ingliz** tillarida taqdim etilishi kerak.

Kirish (Introduction). Kirish qismida, asosan, tadqiqot muammosi, uning maqsad va vazifalari yoritiladi. Mazkur qism tadqiqot mavzusining tanlanish asosi, uning dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini tushuntirib beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mavzuga oid adabiyotlar tahlili tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan muallifning bilim va tasavvurlarga ega ekanini namoyon etuvchi qism hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili mavjud intellektual hudud doirasini baholash va shu asosda ma’lum xarita yaratishni anglatadi. Adabiyotlarning tanqidiy tahlilidagi urinishlar mazkur mavzu doirasidagi bilimlarni kuchaytiradi va tadqiqot savollarini yanada oydinlashtirishga yordam beradi. O‘z mazmuniga ko‘ra, har qanday tadqiqot ayni shu sohada yaratilgan avvalgi bilimlar negiziga quriladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot metodologiyasi tadqiqotning eng muhim qismlaridan biri bo‘lib, u o‘tkazilayotgan tadqiqotning umumiy xaritasi, tadqiqot yo‘li va manzilga (natijaga) olib boruvchi xaritaviy chizgilari hisoblanadi. Tadqiqot metodologiyasi tadqiqot falsafasi va yo‘nalishini (deduksion yoki induksion) belgilash, tadqiqot dizayni, ya’ni tadqiqot muammosining yechimiga olib boruvchi bosh rejasini tuzish, tadqiqot uchun zarur axborotni olish yo‘llari va tadqiqot etikasini belgilash, tadqiqot obyektining tanlovi (sampling), birlamchi yoki ikkilamchi ma’lumot manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlar, tadqiqot strategiyasini (kuzatish, eksperiment, keys-stadi, savolnoma, etnografik, arxiv tadqiqot va h.k.) aniqlash bo‘yicha ratsional qaror qabul qilish asosida qo‘yilgan muammoning aniq yechimiga olib chiquvchi yo‘lni belgilashni anglatadi. Metodologiya qismining mukammalligi tadqiqot uchun belgilangan yo‘lning ishonchliligi (reliability) va aniqliligini (validity) asoslash orqali namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqotning tahlil qismi tadqiqot metodologiyasida avvaldan belgilab olingan tahlil usullari orqali yig‘ilgan ma’lumotlarning tahlilini amalga oshiradi. Bunda faqatgina tahlil usulining natijalari ifoda etiladi, topilgan natijalar bo‘yicha muhokama maqolaning keyingi qismining vazifasi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tadqiqotning maqsad, vazifalarining anglashilganligi hamda tadqiqot savollarining o‘z javobini topganligi, tadqiqotning asosiy natijalariga va tadqiqotning umumiy jarayoniga umumiy xulosalar, shu bilan birga, takliflar va ayni tadqiqotdan kelib chiqqan holda, kelajak tadqiqot ishi yo‘nalishlari maqola xulosa va takliflari qismining asosini tashkil etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References). Ushbu qismda tadqiqotda foydalanilgan barcha adabiyotlarning ro‘yxati [1], [2] yoki [3] ketma-ketligida qo‘yiladi. Masalan:

- mualliflar ismi-sharifi, kitob nomi, nashr manzili nashriyot nomi, yili, betlari;
- mualliflar ismi-sharifi, maqola nomi, jurnal nomi, nashri, yili, soni, betlari.

Maqola *matnida* foydalanilgan adabiyotlardan olingan materialga **havola (snoska)** [1; 25–26-b.] shaklida berilishi kerak.

Izoh: Yuqoridagi talablarga javob bermagangan maqolalar jurnalga qabul qilinmaydi. Qabul qilindan maqolalar jo‘natilgan paytidan 1–3 oy ichida nashr qilinishi mumkin.

“ILM SARCHASHMALARI”

Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali

Muharrir **Ro‘zimboy Yo‘ldoshev**
Texnik muharrir **Sherali Yo‘ldoshev**
Musahhihlar: **Surojbek Ruzmetov,**
Go‘zal Rahimova
Ushbu songa mas’ul **Ilxam Atadjanov**

Terishga berildi: 20.11.2024
Bosishga ruxsat etildi: 30.11.2024
Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.
Rizograf bosma usuli. Tayms garniturası.
Adadi 250. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma №.30
Hisob-nashriyot tabag‘i 25
Shartli bosma tabag‘i 23
UrDU matbaa bo‘limida chop etildi.

UrDU matbaa bo‘limi matbaa faoliyatini boshlagani
haqida vakolatli davlat organini xabardor qilish to‘g‘risidagi
Tasdiqnoma (№3802-835f-ad22-c709-fbd1-1129-1986)
asosida faoliyat yuritadi.

Manzil: 220110. Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy.
Telefon/faks: (62)-224-66-01;
e-mail: ilmsarchashmalari@umail.uz
ilmsarchashmalari@mail.ru
Veb-sayt: www.ilmsarchashmalari.uz
Telegram: <https://t.me/ilmsarchashmalari>